

## “NATUF MADANIYATI: NEOLIT INQILOBIGA ELTUVCHI KO‘PRIK”

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti talabasi  
**Shozamnova Laylo Bahadirovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada neolit davrining yirik madaniyati ya’ni Natuf madaniyati, uning paydo bo‘lishi, tarqalish hududlari, natufiylarning turmush tarzi, diniy e’tiqodi, iqtisodiy holati uning o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so ‘zlar:** Levant, Doroti Garrod, natufiylar, epi- paleolitik, dentalium qobig‘i, Keber madaniyati, Mushabiya madaniyati, yovvoyi o‘simliklar, saluki tozilar, filint va suyak asbobi.

Natuf madaniyati Levant mintaqasida, hozirgi Falastin, Isroil, Iordaniya, Suriya va Livanning ayrim qismlarida mavjud bo‘lgan epipaleotik madaniyatdir. Bu madaniyat aholisining asosiy farqi shundaki, ular ovchi-termachilikdan dehqonchilikka o‘tish bosqichida edilar. Natuf madaniyati Yaqin Sharqdagi neolit inqilobining dastlabki bosqichidir. Natuf nomi taxminan 12 500 dan 10 200 yilgacha Yaqin Sharqning Levant tumanida yashovchi kechki Epi-Paleolitik ovchi yig’iluvchilariga berilgan. Natufliklarning turmush tarzi va iqtisodiyoti o‘ziga xos bo‘lgan. Natufliklarning asosiy oziq-ovqat manbalari don-dun mahsulotlari, jumladan, bug‘doy, arpa bo‘lgan. Ular bug‘doy va arpani maydalab iste’mol qilishgan. Ovchilikda asosan ular kiyik, yovvoyi qushlar, quyon va baliq ovlashgan.<sup>1</sup>

Natufianing bevosa avlodlari sayyoradagi eng qadimgi dehqonlar orasidan edi. Ayrim tadqiqotlarga ko‘ra natufliklar yovvoyi o‘simliklarni o‘stirishga harakat qilishgan. Natufliklar doimiy yoki yarim doimiy tutar- joylarda yashashgan. Ularning

<sup>1</sup> Bar-Yosef, Ofer (1998). “The Natufian Culture in the Levant: Threshold to the Origins of Agriculture.” Evolutionary Anthropology: 159-177

uylari dumaloq shaklda bo‘lib, yerga qazilgan va usti tosh yoki yog‘och bilan yopilgan. Bu bir xonali uylar asosan tosh va yog’ochdan qurilgan.

Bugungi kungacha aniqlangan Natufiylarning eng yirik manzilgohlari Ayn Mallaha bugungi kunda Isroil, va Jerf el- Ahmar bugungi kundagi Suriya hududlariga to‘g‘ri keladi. Natuflar qirg‘oq tekisligi va tepaliklar mamalaktlari chegaralariga o‘z aholi punktlarini joylashtirganlar.

Natufiylarning madaniyati ham o ‘ziga xos bo‘lgan. Asosan ular toshdan yasalgan idishlar va qurollardan foydalanganlar. Ular marjon va hayvon suyaklaridan bezaklar yasashda ham usta bo‘lishgan. Hayvonlarning suyaklarida yasalgan haykalchalar va boshqa buyumlar madaniyatning rivojlanishidan darak beradi.

Natufiylar o‘z marhumlarini maxsus holatda, ularning ustiga ohak sepib, ba’zida itlari bilan birga dafn etishgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, ular o’liklarni qabristonlarda, toshli idishlar va dentalium qobig‘i bilan dafn qilganlar deyiladi.<sup>2</sup> Tadqiqotlar natijasida topib o‘rganilgan hayvon suyaklari va haykalchalari shuni ko‘rsatadiki ular tabiat kuchlariga sig‘inishgan. Ba’zi Natufian guruhlari mavsumiy ravishda ko‘chma bo‘lib, ba’zi joylarda ko‘p yillik mavsumiy ishg’ol, shuningdek, uzoq muddatli respublika, shaharlararo sayohat va almashuvlar borligini isbotlovchi dalillar mavjud. Undan tashqari filint va suyak asbobi va dentalium qobig‘i naqshlari ham Natufian madaniy materiallarining bir qismidir. O’rta Yer dengizi va Qizil dengiz sohilidagi Epi- Paleolitik joylardan 1000 dan ziyod teshilgan dengiz chig’anoqlari topilgan.

Turli ekinlarni yig’ish uchun yaratilgan tosh quollar kabi o‘ziga xos vositalar ham Natufiylar uyushmalarining ajralmas bir qismidir. Bog’dorchilik va qishloq xo’jaligi natuf xalqlari o’rtasida juda keng yoyilgan va bu tarmoq turlari juda yaxshi rivojlangan. Ko’pgina olimlar qishloq xo’jaligiga o’tish bir martalik qaror

<sup>2</sup> Belfer-Cohen, Anna; Goring -Morris, Nigel (2011). “From the Epipalaeolithic into the Earliest Neolithic: The Pre-Pottery Neolithic A Period.”

emas, balki Natufian yoki boshqa ovchi- yig'iluvchilarning yashash rejimlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tajribalar seriyasidan iborat deb hisoblashadi.<sup>3</sup>

Tadqiqotchilar Xayden va boshqalar Natuflar pivoni ishlab chiqarib, uniziyofat bazmlarda ishlatganligi haqida aniq dalillar keltiradi. Ular fermentlar qilingan arpa, bug'doy va javdar ichimliklar ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi uchun tayyor turishi kerak deb hisoblashgan.

Natufiyalar madaniyati –Suriya hududida joylashgan 12 500 – 9 500 eramizdan avvalgi madaniyat bo'lib, lekin undan oldingi Keber madaniyati va Mushabiya madaniyati duragaylari asosida rivojlangan madaniyat hisoblanadi. Natufiyaliklarning asosiy mashg'uloti ov qilish, baliq ovlash va yovvoyi o'sadigan donli ekinlarni yig'ish edi, ular uchun maxsus donli ekinlarni yig'ish uchun moslama yasab, omborxonalar qurishgan.<sup>4</sup>

Natufiyaliklar birinchi qishloq xo'jaligining asoschilari deb taxmin qilinadi. Ba'zi tadqiqotchilar, donli ekinlarni yetishtirishni Natufiyaliklar dunyoda birinchi bo'lib amalga oshirganlar deb hisoblashadi. Ular Zarzian madaniyatiga xos bo'lgan uy sharoitida itlarni qo'lga o'rgatishadi. Ularda shunday madaniyat shakllangan ediki, egalari vafot etganda o'z itlari bilan birga ko'milgan.

Miloddan avvalgi davr odamining yoniga ko'milgan kuchukchalar skeletlari va Saluki tozilar oilasiga mansub katta itlarning suyak qoldiqlari buning isbotidir. Bu tadqiqotlar Britaniya arxeolog tadqiqotchisi, Doroti Garrod nomi bilan bog'liq. Doroti Garrod 1928-1932-yillarda an-Natuf nomi bilan atalgan vodiy yaqinidagi Shukbana g'oridan (Quddusdan 27 km shimoliy- g'arbiy qismida) natufiyalar davriga oid birinchi topilmalarni izlab topgan.<sup>5</sup>

<sup>3</sup> Moore, Andrew M. T. (1982). "Agricultural Origins in the Near East: A Model for the 1980s." World Archaeology 14(2): 224–236

<sup>4</sup> Henry, Donald O. (1989). From Foraging to Agriculture: The Levant at the End of the Ice Age.

<sup>5</sup> Kuijt, Ian; Finlayson, Bill (2009). "Evidence for Food Storage and Predomestication Granaries 11,000 Years Ago in the Jordan Valley." PNAS 106(27): 10966–10970.

Natuf madaniyati taxminan miloddan avvalgi 500- yillarga kelib, iqlim o'zgarishi va aholining to'liq dehqonchilikka o'tishi bilan o'z o'rmini Prekeramik neolit jamiyatlariga bo'shatib bergen.

Natuf madaniyati insoniyat tarixidagi muhim o'tish davrini anglatib, ovchi-termachilikdan dehqonchilikka o'tishning ilk bosqichini aks ettiradi.

Bu madaniyat Levant hududida Neolit inqilobining boshlanishishga asos yaratgan.

Boshqa madaniyatlar singari Natuf madaniyati ham o'zidan yaxshigina e'tiborga arzugulik nom qoldirgan hamda bu madaniyat haqida qiziqarli ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Bunday ma'lumotlarni Asosan, ingliz rus adabiyotlarida ko'rishimiz mumkin.

### Foydalaniman adabiyotlar

1. Bar-Yosef, Ofer (1998). "The Natufian Culture in the Levant: Threshold to the Origins of Agriculture." *Evolutionary Anthropology*: 159-177
2. Belfer-Cohen, Anna; Goring -Morris, Nigel (2011). "From the Epipalaeolithic into the Earliest Neolithic: The Pre- Pottery Neolithic A Period."
3. Moore, Andrew M. T. (1982). "Agricultural Origins in the Near East: A Model for the 1980s." *World Archaeology* 14(2): 224-236
4. Henry, Donald O. (1989). From Foraging to Agriculture: The Levant at the End of the Ice Age.
5. Kuijt, Ian; Finlayson, Bill (2009). "Evidence for Food Storage and Predomestication Granaries 11,000 Years Ago in the Jordan Valley." *PNAS* 106(27): 10966–10970.